

TASVIRIY SAN'ATDA KOMPOZITSIYA TUSHUNCHASI**Akbarova Rayhona Jamoliddin qizi***Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi**yo'nalishi 1- bosqich talabasi**rayhonajamolidnova@gmail.com*

Annotasiya: *Ushbu maqolada tasvir san'atning kompozitsiya janri haqida ma'lumotlar yozilgan. Kompozitsiyani tadqiq qilishdan maqsad va u aslida keng tushuncha ekanligi hamda, tasviriy sanat fani va kompozitsiya xususida ma'lum bir xulosalar, zamonaviy taraqqiyot rassom tafakkurining roli nihoyatda zarur ekanligi keltirilgan. Yurtimizda shakllangan ijodiy maktabning raqobat qobiliyatini muamo sifatida o'rganish kerak ekanligi to'g'risida ko'plab fikrlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Haykaltaroshlik, tasviriy san'at, predmet, usul, kompozitsiya, tasvir, asar, ta'lim, ijodkor, tafakkur, nazar, rivoj, maqsad.*

ПОНЯТИЕ КОМПОЗИЦИИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация: *В данной статье содержится информация о композиционном жанре изобразительного искусства. Цель исследования композиции и тот факт, что она представляет собой широкое понятие, а также определенные выводы о науке изобразительного искусства и композиции, роли мышления художника в современном развитии, крайне необходимы. Существует множество мнений о необходимости изучения конкурентоспособности сформировавшейся в нашей стране творческой школы как проблемы.*

Ключевые слова: *Скульптура, изобразительное искусство, предмет, метод, композиция, образ, произведение, образование, творец, мышление, видение, развитие, цель.*

CONCEPT OF COMPOSITION IN FINE ARTS

Abstract: *This article contains information about the composition genre of visual art. The purpose of researching composition and the fact that it is a broad concept, as well as certain conclusions about the science of fine art and composition, the role of the artist's thinking in modern development is extremely necessary. There are many opinions about the need to study the competitiveness of the creative school formed in our country as a problem.*

Key words: *Sculpture, fine art, object, method, composition, image, work, education, creator, thinking, vision, development, purpose.*

KIRISH

Bugungi kunda tasviriy san'atning yurtimizda va dunyoda rivojlanish jarayonini kuzatadigan bo'lsak, bugungi kun musavvirlarining tafakkuri keng bo'lishi kerak ekanligi jumladan dunyo tasvir san'atida ro'y berayotgan jarayonlardan orqada qolib ketmasligi va yurtimizda kechayotgan taraqqiyot jarayonlariga hamohang harakatda bo'lishini bevosita davrning o'zi talab qilmoqda. Biz yashayotgan hozirgi zamonaviy davrda tasviriy san'atning o'rni degan savolni qo'yadigan bo'lsak, aytishimiz mumkinki tasviriy san'at tarbiyadan tortib taraqqiyotning yuksak ko'rinishlarigacha o'z o'rniga ega ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi. Hayotimizning har jabhasida ishlayotgan har buyumda, umuman har qanday ko'rinishda albatta rassom ijodkorning tafakkuri aks etganini ko'rishimiz mumkin. Tasviriy san'at - rang tasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi hisoblanadi. Tasviriy san'at voqelikni uning osongina ilg'ab olinadigan fazoviy shakllarda ko'rgazmali obrazlar aks ettiradi. Tasviriy san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud sifatlari - hajm, rang, fazo shuningdek predmetning moddiy shakli va nurhavo muhiti harakat va o'zgarishlari hisini yaratadi. Bunda tasvirning hissiy konkretligidan illuziyuzionizmga o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat ko'rish mumkin bo'lgan narsalarnigina tasvirlab qolmay balki asarlarida hodisalarning vaqtinchalik rivoji uning u yoki bu qismi, erkin hikoyanavislik dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san'at insonning ruhiy qiyosini, uning o'zgalar bilan psixologik va emotsional mazmunini ham yaratadi.

METODOLOGIYA

Tasvir san'atda kompozitsiya chegarasi mavjud desak xato bo'ladi. Chunki insonni fikrlashini chegaralab bo'lmaydi. Kompozitsiya so'zi (lotinchadan olingan bo'lib composito tuzish, birlashtirgan bog'lanish degan ma'noni beradi) badiiy asarning mazmunan karakteri va maqsadi jihatidan bog'langan qismlarining joylashishidir. Kompozitsiyaning o'ziga hosligi syujet unsurlarining qanday tartib bilan joylashishiga syujetdan tashqari unsurlar (lirik, falsafafiy - publitsistik chekinishlar, qo'shimcha epizodlar) ning bor yo'qligiga , pryazaj portet, psixologik, tasvir, muallif tavsifi kabi vositalarning me'yori va tartibga bog'liq. Kompozitsiyani asar g'oyasi bilan uzviy bog'liq holda tushunib kelingan. Kompozitsiya asarning shunchaki tuzilishi emas, balki shu tuzilishining maqsadi, uning nima asosida tuzilganligidir. Kompozitsiya asar g'oyasiga ham bog'liq bo'ladi. Masalan haykaltaroshlik asarlaridan relyefni faqat old tomondan ko'rish mumkin. Aksincha, mahobatli yodgorliklarni esa aylanib tomosha qilish lozim. Haykaltaroshlik asar yaratganda kompozitsiya qonunlarini etiborga olish kerak. Tasviriy san'atda ko'p shakl (figurali) kartina va haykallar ham kompozitsiya deb ataladi. Adabiyotda kompozitsiya - asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati o'zaro bog'liqligi, voqea, karakter obrazlar, lirik chekinishlar, tavsilotlar bayoni va shu kabi ma'lum maqsadga

bo'ysindiradilar. Agar kompozitsiyaning yahlitligi uning asosiy shartidir. Ortiqcha personaj epizod va detallar asar qimmatini pasaytiradi. Shuning uchun ham badiiy asarlarda hech qanday yetishmovchilik ham ortiqchalik ham bo'lmasligi kerak. Lekin ma'lum bir davrda mafkura nuqtai nazaridan fikr bildirish nazarda tutilgan. Bunga misol bir davrda diniy cherkovlar olib borgan faoliyatini aytish mumkun bo'ladi. Xar qanday ijodkor o'tmishdagi rang tasvir san'at usullari merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga tomoshabinga chuqur tasir etuvchi tasvir qonunlar va uslubiyati ham o'rganadi. Tasviriy san'at ta'limida malum bir muammolarini aytish va unga kompozitsion nuqtai nazardan pedagogik yechim nazarda tutiladi. Bo'lajak pedagog rassom kelajakda dars berishi bilan birga rivojlanishning yuksak bosqichlarda ham o'z o'rinlariga ega bo'lishlari shart. Yuksak maromiga yetgan asarlari bo'ladimi yoki texnologiyalari asosida zamonaviy turli sohaga oid loyihalar bo'ladimi undan tashqari san'atning turli ishlab chiqarishlarida yangicha dizayindagi san'at mahsuloti bilan albatta bu yerda rassom tafakkurining ro'li nihoyatda zarur.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tasviriy san'atda rassom (haykaltarosh va boshqa) g'oyasini aniq ifoda etish vositasi bo'lib unda ijodkorning mahorati yorqin namoyon bo'ladi. Kompozitsiya orqali muallif chiziq shakl rang va obrazlarni tartibga soladi, fazoviy kenglikni o'zgartirish va badiiy muhit yoritadi. Kompozitsiya asosini mantiqiylik shakl aniqligi va ularning o'zaro uyg'unligi tashkil etadi. Ijodkor yaratgan har bir asarning asosida kompozitsiya yotadi, unda borliqni idrok qilish jarayonida hosil bo'ladigan fikr, his tuyg'ular o'z aksini topadi. Tasviriy san'atning har bir turi o'ziga hos kompozitsiyon uslublarga ega. Masalan kitob bezagi (rasm) mahobatli, devoriy rassomlik kompozitsiyani idrok qilish ham turlicha bo'lishi mumkin Kompozitsiya haqida gap borganida , uning naqadar mashaqqatli nechog'li qiziqarli ekanligini aytib o'tish o'rinli. Chunki asar yaratish ijodkor rassomdan kompozitsiya uchun nisbatan ko'p etyud, eskiz ishlashni va bu muallifdan mavzuga chuqur yondashishni talab etadi. Kompozitsiyada umumiy yahlitlikka erishish uchun asosiy maqsadni yorituvchi diqqat etiborli markazni belgilash, ikkinchi darajali qismlardan voz kechish, chalg'ituvchi kontrastlardan holi bo'lish talab etiladi. Albatta badiiy asar yaratishda amaliy jihatdan ko'nikmalarni egallash hamda nazariy bilimlarni ham bilishlari kerak. Tasviriy san'atdagi kompozitsiya janri albatta insonni chuqur mulohaza qilishga , zavqlanishga, tasavvurni boyitishga ega bo'ladi va bizning manaviy boyligimizga aylanib boradi. Kompozitsiya - badiiy asarni tashkil etuvchi va intizomga bo'ysindiruvchi kuch. Uning vazifasi biron bir narsaning chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik, ayni chog'da , uning bir butunlikka birikishini nazorat qilishdir. Uning maqsadi barcha bo'laklar (parchalar) ni shunday joylashtirishki , ular oqibat asar g'oyasini to'liq ifodalashga qodirdir. Asar g'oyasini ochishga xizmat qilmaydigan bironta obraz , bironta ko'rinish , bironta haddi - harakat , bironta so'z bo'lmasligi badiiy kompozitsiya nazorat qiladi va shu hislari bilan go'zalikda yahona bo'lgan

olamni - badiiy asarni yuzaga kelishiga sababkor bo'ladi. Kompozitsiya bundan tashqari, tasvirdagi me'yor va muvofiqlikni ham yuzaga chiqaradi.

NATIJJALAR

Kompozitsiya aslida keng bo'lib u san'atning barcha turlarida tadbiiq etiladi. Rang tasvirda biror asar yaratilar ekan albatta kompozitsiya qonun va qoidalaridan foydalaniladi va bu asarda ijodkorlarning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini ochib berishga xizmat qiladi. V M . Jirmunskiy aytganidek kompozitsiyani tadqiq qilishda maqsad, asarning tashqi tuzilishini aniqlaydigan badiiylilik asoslarini topishi undagi badiiy materialni taqsimlash va joylashtirishni aniqlashdan iborat. San'atni doimiy rivojlanishida bo'lishi bu erkin ijodiy tafakkur , kompozitsion fikrlashning bo'lishidir. Shuni nazarda tutish kerakki yani san'atning yashovchan bo'lishi uchun avvalo erkin kompozitsiyaning rivojlanishiga imkoniyat yaratish hisoblanadi. Aytishimiz mumkinki san'atni rivojiga to'siq bo'lish va ta'limni susaytirishning eng fundamental sharti ekanligining bo'lmasligidir. Bilamizki butun dunyoda ijodkor hususan rassomlar har bir davrda o'zlarining ijodiy ustaxonalari va studiyalariga ega bo'lishgan. Malumki kompozitsiya so'zi orqali rassomlar tasviriy san'at asarining barcha qismlarining o'zaro munosabatlaring qonuniyatini tushunadilar. Kompozitsiya unsurlari bo'lgan - mutanosiblik, muvozanat, yahlitlik singari sifatlarni olib qararak , ular har bir tabiat voqealıklarida mavjud ekanligini sezib olishimiz qiyin emas . San'at o'z tamoyiliga ko'ra fundamental erkin ijodiy kompozitsiyadir . Demak ijodkor boshqa insonlardan tasavvur tafakkurning kengligi bilan farq qiladi. Aslida tasavvur har bir insonda mavjud ekan lekin, san'at kishisining ijodiy tafakkuri ijodkorlikka hosdir.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki tasviriy san'at yo'nalishida ijod qilayotgan har bir rassom o'quvchilarning, o'qituvchilar, talaba yoshlar, havaskor ijodkorlar kompozitsiya tushunchasini to'liq anglab yetishi kerak. Avvaliga yosh rassomlar ijodiy ishlarini ko'chirma shaklda ishlasa u o'z ustida ishlab, yetuk ko'chirma shaklda ishlasa u o'z ustida ishlab yetuk rassom bo'lib yetishishi uchun o'z ijodiy kompozitsiyasini yaratishi kerak. Ana o'shandagina tasviriy san'atda yahshi natijaga erishish mumkin. Bugungi kunda xalq rassomlari va taniqli rassomlar ham o'z ijodiy kompozitsiyalari tufayli mashxurlikka erishishgan. Qachonki rassom yetuk ijodkor bo'lib yetishishi uchun kompozitsiya tushunchasini tushunishi juda ham zarur. Chunki tasviriy san'at yo'nalishida ijod qilayotgan har bir odam boshlanishida taniqli rassomlar va ijodkorlar ishlaridan ko'chirmalar qilib ishlasalar undan keyin esa u o'z ijodiy salohiyatini kuchaytirish uchun o'z kompozitsiyasini bo'yoqlar va turli qatlamlar bilan yaratishi kerak. Bugungi kunda xalq rassomlari va taniqli rassomlar ham o'z ijodiy kompozitsiyalari sababli yetuk samaradorlikka erishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Boboyev. Adabiyotshunoslikka kirish, T, " O'qituvchi " , 1979.
2. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari "o'qituvchi " nashriyoti. Toshkent. 1986.
3. N. Saidaxmedov "Yangi pedagogik texnologiyalar" . Moliya . Nashiriyot Toshkent. 2003
4. N. Abdullayev. San'at tarixi - T... O'qituvchi, 1986
5. S.F. Abdurasilov. Tasviriy sa'natni o'qitish metodikasi "Ilm - ziyo nashriyoti" 2005
6. N. Rostoven . O'rta maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi M ; 1980